



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-dekabr

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 3168,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 152,1 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 36,5 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2367,0 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

Viloyatda amalga oshirilgan islohotlar ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 13,4 foizga oshishiga olib keldi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3168,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (36,5 %), transport xizmatlari (18,8 %), moliyaviy xizmatlar (14,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,4 %) tashkil

2018 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar tarkibi,%




2018 yil yanvar-dekabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3168,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	3168,4	113,4
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	203,5	111,0
moliyaviy xizmatlar	466,4	152,1
transport xizmatlari	594,2	104,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	570,0	103,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	96,7	108,8
savdo xizmatlari	1155,2	110,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	86,8	102,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	136,4	111,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	52,6	123,9
ljara xizmatlari	77,2	117,1
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	98,4	107,0
shaxsiy xizmatlar	95,7	102,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	27,3	119,2
boshqa xizmatlar	78,0	104,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari (1155,2 mlrd. so'm), transport xizmatlari hajmi (594,2 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (466,4 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (203,5 mlrd.so'm), ta'lim xizmatlari (136,4 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi. (mlrd so'm)



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 10,4 mlrd.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (152,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (123,9 %) ta'lim sohasidagi xizmatlar (128,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (119,2 %), ijara xizmatlari (117,1 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,3 %), shaxsiy xizmatlar (102,9 %), transport xizmatlari (104,5 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.


Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (91,3 %) etakchilik qilmoqda.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (97,4 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 96,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish 108,8 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,1 % ga yetdi.

**2018 yil yanvar-dekabr oylarida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (%)**




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,8 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,2 % ga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1155,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 36,5 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 80,9 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 14,7 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,4 % ni tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlarning eng katta ulushina (36,5 foiz) savdo xizmatlari tashkil etmoqda .

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlari ulusi (%)



Savdo xizmatlarining hududlar bo'yicha eng katta ulushi Jizzax (46,7 %), Do'stlik (10,9 %), G'allaorol (7,5 %) va Sh. Rashidov (7,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi

Eng past ulushi Yangiobod va Zafarobod (1,0 %), Arnasoy (1,5 %) va Zarbdor (2,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.


**2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	3168,4	113,4
Jizzax shahri	1659,6	113,8
tumahlar		
Arnasoy	67,0	112,8
Baxmal	132,4	112,9
G'allaorol	200,1	112,6
Sh.Rashidov	264,2	112,9
Do'stlik	193,9	113,4
Zomih	165,2	112,3
Zarbdor	82,0	113,1
Zafarobod	55,1	113,4
Mirzacho'l	96,8	113,2
Paxtakor	120,6	113,3
Forish	95,6	112,9
Yangiobod	35,9	112,5

Hududlar o'rtasida Jizzax shahri (1699,6 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Jizzax shahri bo'yicha 113,8 % ni tashkil etdi.

Jizzax shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi 52,4 % ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %




Yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahrida (113,8 %), Paxtakor (113,3 %) Do'stlik va Zafarobod (113,4 %) Zarbdor (113,1 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Zomin (112,3 %), Yangiobod (112,5 %), Arnasoy (112,8 % tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Yangiobod tumanida (1,1 %) qayd etildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2367,0 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 439,5 ming.so'mga oshdi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - 9585,5 ming so'm qayd etildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlarining hajmi 594,2 mlrd. so'mni tashkil etib 104,5 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 18,8 foizni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha transport xizmatlari ulushi (%)



Transport xizmatlarining hududlar bo'yicha eng katta ulushi Jizzax (19,6 %), Sh. Rashidov (17,6 %), G'allaorol (12,0 %) Do'stlik (8,3 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida t'olim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 4,3 foizini tashkil etib 136,4 mlrd. so'm, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,7 foizga o'sdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Yangiobod tumani (146,0 %)ga o'sib bu sohada etakchilik qilmoqda


2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati. (%)



Ushbu sohada nisbatan past o'sish sur'atlari Mirzacho'l (99,1 %), Arnasoy (102,3 %), G'allaorol va Forish (105,1 %), Baxmal (105,6 %), tumanlarida kuzatildi.

2018yil yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar jami 52,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,9 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 1,7 foizni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori o'sish sur'ati Zomin (146,6 %), Zarbdor (133,1 %) Jizzax shaxri (117,6 %) da kuzatildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati. (%)



Ushbu sohada nisbatan past o'sish sur'atlari Baxmal (95,8 %), Gallaorol (101,0 %), Sh.Rashidov (101,6 %), va Paxtakor (103,4 %), tumanlarida kuzatildi.